

КРЕДИТ TO'LOVLARI BO'YICHA XARAJATLARNI BOSHQARISH

Ихромов Дилмуроджон

Hakimov Abror

Usanov Orzubek

“Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar” fakulteti talabalari

Anotatsiya. Mazkur tezisda korxonalarda kredit to'lovlari bilan bog'liq xarajatlarni boshqarish masalalari boshqaruv hisobi nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Ishda kredit mablag'laridan oqilona foydalanish, foiz to'lovlarini kamaytirish va qarz yuklamasining korxonaga moliyaviy holatiga ta'sirini baholash muammolari yoritilgan. Shuningdek, boshqaruv hisobi tizimida kredit xarajatlarini rejalashtirish, byudjetlashtirish, tahlil qilish va nazorat qilishning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kredit to'lovlari, boshqaruv hisobi, kredit xarajatlari, foiz stavkasi, moliyaviy tahlil, byudjetlashtirish, qayta moliyalashtirish, kredit samaradorligi.

Kredit to'lovlari bo'yicha xarajatlarni boshqarish boshqaruv hisobi tizimining muhim yo'nalishlaridan biridir. Har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyatini moliyalashtirish jarayonida turli manbalardan, xususan, bank kreditlaridan foydalanadi. Bunday hollarda kredit mablag'larini oqilona boshqarish, ularning qaytarilish muddati va foiz to'lovlarini nazorat qilish korxonaning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Boshqaruv hisobi nuqtai nazaridan kredit xarajatlarini boshqarish jarayoni bir nechta bosqichlardan iborat: avvalo, kredit olishdan oldingi tahlil bosqichida mablag'larning maqsadli yo'naltirilishi, qarz yuklamasining korxonaga likvidligiga ta'siri baholanadi. Keyingi bosqichda foiz to'lovlari, jarima va komissiya xarajatlarini aniqlash orqali kreditning umumiy qiymati hisoblab chiqiladi. So'ngra ushbu xarajatlarni kamaytirishning ichki rezervlari, ya'ni kreditni muddatidan oldin yopish, qayta moliyalashtirish yoki imtiyozli kreditlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kredit to'lovlari bo'yicha xarajatlarni boshqarishning asosiy maqsadi – korxonaning moliyaviy natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ortiqcha to'lovlarni kamaytirishdir. Boshqaruv hisobi ma'lumotlari yordamida rahbariyat kredit yuklamasi darajasini aniqlaydi, foiz stavkalari o'zgarishiga nisbatan sezuvchanlikni baholaydi hamda qarz kapitalining optimal tuzilmasini belgilaydi. Kredit mablag'laridan samarali foydalanish korxonaga nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, balki rentabellikni oshirish, pul oqimlarini muvozanatlash va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini amalga oshirish imkonini beradi.

Kredit to'lovlari bo'yicha xarajatlarni boshqarishda boshqaruv hisobi vositalari — byudjetlashtirish, rejalashtirish, tahlil va nazorat mexanizmlari muhim o'rin tutadi. Kredit bo'yicha to'lovlar prognozi korxonada moliyaviy byudjetida alohida bo'lim sifatida shakllantiriladi, bu esa kelgusi davrda naqd pul oqimlarini to'g'ri rejalashtirishga imkon beradi. Shu orqali korxonada o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish va foiz to'lovlari kechikishining oldini olish imkoniga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, kredit xarajatlarini kamaytirishning samarali usullaridan biri bu – kredit resurslarining diversifikatsiyasi, ya'ni bir nechta moliya institutlaridan turli shartlarda kredit olishdir. Bu yondashuv korxonaga eng past foiz stavkali yoki qulay to'lov jadvali taklif etayotgan bank bilan hamkorlik qilish imkonini beradi. Shuningdek, kreditdan olingan mablag'larni rentabellik darajasi yuqori bo'lgan loyihalarga yo'naltirish orqali foiz xarajatlarining nisbiy ta'siri kamaytiriladi. Kredit to'lovlarni boshqarish jarayonida boshqaruv hisobi hisobotlari asosida qaror qabul qilish juda muhimdir. Ayniqsa, foiz xarajatlarining ishlab chiqarish tannarxiga yoki umumxo'jalik xarajatlariga ta'siri aniqlanib, ularning qisqartirish imkoniyatlari izlanadi. Tahlil natijalariga ko'ra, korxonada kredit yuklamasini optimallashtirish, amortizatsiya ajratmalarini oshirish yoki o'z mablag'laridan qayta investitsiya qilish orqali tashqi qarzga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishi mumkin.

Endi kredit summasini qanday hisoblashni ko'rib chiqamiz:

Masalan, korxonadan bankdan bir yilga (12 oyga) yillik 10%ga 3 oylik imtiyozli davr bilan 22 000 000.00 so`m (yigirma ikki million so`m) kredit summasini oldi.

T/r	Foiz summasi	Asosiy qarz summasi	Balans qoldiq summasi
1	183 333.3	-	22 000 000.00
2	183 333.3	-	22 000 000.00
3	183 333.3	-	22 000 000.00
4	183 333.3	2 444 444.44	19 555 55.56
5	162 962.963	2 444 444.44	17 111 111.12
6	145 592.592	2 444 444.44	14 666 666.68
7	122 222.222	2 444 444.44	12 222 222.24
8	101 851.852	2 444 444.44	9 777 777.8
9	81 481.481	2 444 444.44	7 333 333.36
10	61 111.111	2 444 444.44	4 888 888.92
11	40 740.741	2 444 444.44	2 444 444.48
12	20 370.37	2 444 444.48	0

Xulosa. Kredit to'lovlari bo'yicha xarajatlarni samarali boshqarish korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Boshqaruv hisobi vositalaridan foydalanish orqali kredit xarajatlarini rejalashtirish, tahlil qilish va nazorat etish imkoniyati yaratiladi. Foiz stavkalarini pasaytirish, kreditni qayta moliyalashtirish hamda mablag'larni yuqori rentabellikka ega yo'nalishlarga yo'naltirish korxonaning foydasini oshiradi. Shu bois, kredit xarajatlarini boshqarish tizimini takomillashtirish har bir xo'jalik yurituvchi subyektning ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Boshqaruv hisobi” fanidan o‘quv qo‘llanma / Tahrir hay’ati: A. Abdug‘aniev, M. Xo‘jayev. — Toshkent: TDIU nashriyoti, 2022.
2. Karimov A., Tursunov B. *Moliyaviy tahlil va boshqaruv hisobi asoslari*. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
3. Horngren C., Datar S., Rajan M. *Cost Accounting: A Managerial Emphasis*. — Pearson Education, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti — www.cbu.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy portali — www.mf.uz.